

L O Y I X A

**Mexnat jamoasining umumiy yirilishida
ma`kullangan**

__ yil «»_

Buxoro muxandislik- texnologiya instituti

(ta`lim muassasasi nomi)

2014-2017 yil(lar) uchun

JAMOA SHARTNOMASI

Mexnat jamoasining umumiy yirilishi qaroriga binoan jamoa shartnomasiga imzo chekdilar:

Ish beruvchi

_____ **Buxoro muxandislik
texnologiya instituti rektori**

Ta`lim muassasasi nomi

Kasaba uyushmasi qo`mitasi raisi

U.TMuxamedxanov

(F.I.O.)

SH.N.Ochilov

(F.I.O.)

Jamoa shartnomasiga imzo chekish vaqtida quyidagilar hozir bo`ldilar:

Ish beruvchi vakillari

- 1. K.T.Olimov**
- 2.F.T.Gaybullaev**
- 3. e.Fafurov**

Xodimlar vakillari

- 1. N.O`rinov**
- 2. K.Mastonov**
- 3. M.Temirova**

I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur jamoa shartnomasi (keyingi o`rinlarda «**SHartnoma**») Buxoro muxandislik–texnologiya institutida ish beruvchi bilan xodimlar, talabalar o`rtasidagi mehnatga oid, ijtimoiy-iqtisodiy va kasbga oid munosabatlarni tartibga soluvchi maxalliy normativ hujjat hisoblanadi.

Mazkur **SHartnomaning** taraflari deb quyidagilar hisoblanadi:

- **ish beruvchi** Buxoro muxandislik-texnologiya instituti rektori U.T.Muxamedxanov,

- **xodimlar va talabalar kasaba uyushma qo`mitasi raisi SH.N.Ochilov**

1.2. **SHartnoma** -----kuchga kiradi va ----- amal qiladi. Belgilangan muddat tugagach, jamoa shartnomasi taraflar yangi shartnoma tuzguncha yoki amaldagi shartnomani o`zgartirguncha, to`ldirguncha amalda bo`ladi.

1.3. Mazkur **SHartnoma Ish beruvchiga** va **Muassasaning** barcha xodimlariga, shu jumladan jamoa shartnomasi kuchga kirganidan keyin ishga kabul kilingan shaxslarga xam tatbiq etiladi.

Mazkur **SHartnomada** nazarda tutilgan xollarda uning ayrim qoidalari quyidagilarga nisbatan xam tatbiq etiladi:

- xodimning oila a`zolariga;
- yoshga doir pensiyaga ketishi munosabati bilan mehnat munosabatlari ish beruvchi tomonidan bekor qilingan shaxslarga;
- kasaba uyushma qo`mitasining shtatdagi xodimlariga;
- mehnat vazifalarini bajarish bilan bo`liq xolda jarohatlanishi, kasb kasalliklariga chalinishi yoki salomatlikning boshqa xil shikastlanishi tufayli zarar etkazilishi oqibatida jabrlangan sobiq xodimlarga;
- mehnatda mayib bo`lishi, kasb kasalligi yoki mehnat vazifalarini bajarish bilan bo`liq xolda sofligiga boshqacha tarzda shikast etishi sababli vafot etgan xodim karamofida bo`lgan va zarar to`lovini olish huquqiga ega bo`lgan mehnatga kobiliyatsiz shaxslarga;
- kasaba uyushmasi a`zolariga (kasaba uyushma byudjeti hisobidan beriladigan qo`shimcha imtiyozlar qismida).

1.4. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2006 yil 11 yanvardagi 4-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «Kasanachilik to`risida Nizom»ga binoan mazkur **SHartnomaning** ish xaftasining muddatiga (4.1-bandi), tungi vaqtdagi va kechki smenadagi ish uchun oshirilgan miqdorda to`lanadigan xaqga (5.12.1- kichik bandi), ish vaqtdan tashkari ishlar, dam olish kunlari va bayram kunlaridagi ishlar uchun oshirilgan miqdorda to`lanadigan xaqga (5.12.2- kichik bandi) oid me`yoriy qoidalari kasanachilarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

1.5. **SHartnomaga** o`zgartirish va qo`shimchalar kiritish taraflarning o`zaro roziligi bilan Mehnat kodeksida uni tuzish uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

1.6. Mehnat to`risidagi konunlar va boshqa normativ hujjatlar mazmuniga kilingan ishoralarning barchasida ularning mazkur **SHartnomani** tuzish cho`fidagi

taxriri nazarda tutilgan.

1.7. **Ish beruvchi** barcha xodimlarni, shu jumladan ishga yangi qabul qilingan xodimlarni, jamoa shartnomasi, shuningdek **Kasaba uyushma qo'mitasi** bilan kelishib qabul qilingan **Muassasaning** boshqa lokal xujjatlari bilan tanishtirish, jamoa shartnomasining mazmuniga va bajarilishi shartlariga oid ma'lumotlar oshkoraligini (majlislar, mas'ul xodimlar xisobotlari, axborot stendlari va xokazo orkali) ta'minlash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

II. MUASSASANING IKTISODIY FAOLIYATI

2.1. Taraflar mehnat vazifalarining xalol va sifatli bajarilishi xodimlar farovonligining negizi ekanligini e'tirof etadilar.

2.2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", boshqa me'yoriy xujjatlardagi o'qish jarayonini tashkil qilish Ish beruvchining xuquqidir. Bu masalada Ish beruvchi kasaba uyushmasini kutilayotgan tashkiliy o'zgarishlar, ish xaqi va mehnat sharoiti yuzasidan amalga oshirilishi mo'ljallanayotgan tadbirlar to'g'risida xabardor qilib turadi.

2.3. **Kasaba uyushma qo'mitasi**

a) ijtimoiy-me'nat munosabatlariga oid masalalarni, shuningdek ishlab chikarish va ijtimoiy-iktisodiy muammolarni xal etishda xodimlar nomidan ish ko'rish;

b) **Kasaba uyushma qo'mitasi** vakillarini **Muassasa** boshqaruvining organlariga saylanishi imkoniyatlaridan foydalanish;

v) kasaba uyushmalariga xos uslublar yordamida **Muassasaning** barqaror faoliyat ko'rsatishiga ko'maklashish;

g) ichki me'nat tartibi qoidalariga, me'nat intizomiga rioya etilishiga, me'nat vazifalari o'z vaqtida va sifatli bajarilishiga ko'maklashish;

d) **Muassasani** boshqarish, jamoa shartnomasi majburiyatlarini takomillashtirish, xodimlarning me'nat shartnomasidagi vazifalarni to'liq va sifatli bajarishlariga ko'maklashuvchi ijtimoiy-iktisodiy rivojlanishning joriy va istiqbolli reja va dasturlarini qabul qilish kabi masalalar yuzasidan jamoa muzokaralarini olib borish bo'yicha takliflarni **Ish beruvchiga** kiritib borish;

e) xodimlarni ratsionalizatorlik va ixtirochilik ishlarida ishtirok etishlariga ko'maklashish;

j) mamlakatni modernizatsiyalash va yangilash, demokratik xukukiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurish borasidagi ustuvor dasturlar bajarilishini monitoring qilish ishlarida ishtirok etish;

z) tarmoq ko'rik-tanlovlarida ishtirok etish tashabbuslari bilan chikish;

e) ijtimoiy ximoyalash, o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi tizimini rivojlantirish kabi Prezident Farmonlari, Xukumat qarorlari yuzasidan o'quvlar tashkil qilish majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi.

2.4. Xodimlar:

a) o'z me'nat vazifalarini xalol bajarish, **Ish beruvchining** farmoyishlari va

buyruqlarini o`z vaqtida va sifatli ijro etish;

b) ichki meʼnat tartibi koidalariga, o`rnatilgan meʼnat rejimiga va meʼnat intizomiga rioya qilish majburiyatlarini o`z zimmasiga oladilar.

III. MEʼNAT SHARTNOMASI. BANDLIK KAFOLATLARI.

3.1. Xodim va **Ish beruvchi** o`rtasidagi meʼnat munosabatlari meʼnat to`ʼrisidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar (shu jumladan tarmoq (tarif) kelishuvlari, xududiy (mintaqaviy) kelishuvlar va mazkur **SHartnoma**) koidalariga binoan yozma ravishda tuzilgan meʼnat shartnomasi bilan tartibga solinadi. Bunda meʼnat shartnomasi taraflarining birontasi boshqa tarafning uchinchi shaxslar oldidagi majburiyatlari bo`yicha javob bermaydi.

3.2. Ishga qabul qilish shuningdek:

a) tanlov asosida;

b) O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2006 yil 11 yanvardagi 4-son Qarori bilan tasdiqlangan "Ish beruvchining buyurtmasi bo`yicha kasanachi tomonidan ishlarni bajarish (xizmatlar ko`rsatish) uchun Namunaviy meʼnat shartnomasi"ga binoan tuzilgan kasanachi tomonidan ish beruvchining buyurtmasiga binoan ishlarni bajarish (xizmatlar ko`rsatish) uchun meʼnat shartnomasi asosida amalga oshirilishi mumkin.

3.3. Mutaxassisligiga, malakasiga va meʼnat shartnomasiga muvofiq xodimlar to`la-to`kis ish bilan ta`minlanadilar.

3.4. Meʼnat shartnomasini **Ish beruvchining** tashabbusi bilan bekor qilinishi faqatgina **Kasaba uyushma ko`mitasining** oldindan rozligini olib amalga oshiriladi (O`zbekiston Respublikasi Meʼnat kodeksida nazarda tutilgan xollar bundan mustasno).

(Meʼnat shartnomasi:

- **Muassasa** tugatilishi munosabati bilan;

- **Muassasa** raʼbari bilan tuzilgan shartnomani Meʼnat kodeksi 100-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan asoslardan biriga ko`ra;

- **Muassasa** raʼbari, uning o`rinbosarlari, bosh buxgalter bilan, Muassasada bosh buxgalter lavozimi bo`lmagan takdirda esa, bosh buxgalter vazifasini amalga oshiruvchi xodim bilan tuzilgan Meʼnat shartnomasi mulkdorning almashishi sababli bekor kilingan takdirda **Kasaba uyushma ko`mitasining** roziligini olish talab etilmaydi.)

3.5. Xodimning vaqtincha boshqa ishga o`tkazish haqidagi iltimosi, agar bu iltimos uzrli sabablar tufayli kelib chiqqan va bunday ish **Muassasada** mavjud bo`lsa, ish beruvchi tomonidan qanoatlantirilishi kerak.

Xodimning tashabbusi bilan boshqa ishga o`tkazish muddati xodim va **Ish beruvchi** o`rtasidagi kelishuvga binoan belgilanadi. Bunda meʼnat haqi amalda bajarilayotgan ishga qarab (yoki avvalgi o`rtacha ish haqidan kam bo`lmagan miqdorda) to`lanadi.

Xodimning tashabbusi bilan vaqtincha boshqa ishga o`tkazish uchun uzrli sabablar deb quyidagilar xisoblanadi:

3.5.1. betob oila a`zosini parvarishlash zaruriyati;

- 3.5.2. ishni ta`lim bilan qo`shib olib borilishi;
- 3.5.3. moliyaviy qiyinchiliklar;
- 3.5.4. avvalgi ish joyida xodimning xayoti yoki sofligiga taxdid soluvchi omillar vujudga kelishi;

3.6. Ishlab chikarish zaruriyati yoki bekor turib qolinishi munosabati bilan **Ish beruvchining** tashabbusiga ko`ra xodimni uning roziligisiz vaqtincha boshqa ishga o`tkazishga yo`l qo`yiladi.

Ish beruvchining tashabbusi bilan xodimni vaqtincha boshqa ishga o`tkazish uchun ishlab chikarish zaruriyati deb quyidagi xolatlarda bajarilishi lozim bo`lgan tezkor va kechiktirib bo`lmaydigan ishlar xisoblanishi mumkin:

3.6.1. boshqa xodimning ishda vaqtinchalik xozir bo`lmagan davrida (o`quv sessiyasiga, mexnat ta`tiliga va xaq to`lanmaydigan ta`tilga ketishi, vatinchalik mexnatga layoqatsizligi sababli);

3.6.2. tabiiy va texnogen tUSDagi avariyaLar, baxtsiz xodisa, tabiiy ofat, va boshqa favkulodda xodisalarning oldini olish zaruriyati yuzaga kelganda;

Ishlab chikarish, tashkiliy-texnik tUSDagi yoki boshqa ob`ektiv sabablarga ko`ra ish vaqtincha to`xtatilishi bekor turib qolish deb xisoblanadi.

Vaqtincha boshqa ishga o`tkazishlar muddati ishlab chikarish zaruriyatini keltirib chikargan omillarni bartaraf etish vaqti yoki bekor turib qolinishining butun davri bilan belgilanadi. Barcha xollarda **Ish beruvchining** tashabbusi bilan xodimni vaqtincha boshqa ishga o`tkazish muddatining chegarasi yil davomida 60 kundan oshmasligi lozim. (Xalqaro mexnat tashkiloti (XMT)ning O`zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan 29-Konventsiyasi).

Xodim **Ish beruvchining** tashabbusi bilan vaqtincha boshqa ishga o`tkazilgan davrda unga bajarayotgan ishiga qarab, lekin avvalgi o`rtacha ish xakidan kam bo`lmagan miqdorda ish xaki to`lanadi.

3.7. **Ish beruvchi** xodimlarni ommaviy ravishda ishdan ozod etish extimoli to`frisida kamida ikki oy oldin tegishli kasaba uyushmasi organiga axborot taqdim etish va ishdan ozod etish oqibatlarini engillashtirishga karatilgan maslaxatli ishlarni amalga oshirish majburiyatini o`z zimmasiga oladi. **Ish beruvchi** shuningdek kamida ikki oy oldin xar bir xodimning kasbi, mutaxassisligi, malakasi va mexnat xaki miqdorini ko`rsatgan xolda, bo`lajak ishdan ozod qilish to`frisidagi ma`lumotlarni maxalliy mexnat organiga xam ma`lum qilish majburiyatini o`z zimmasiga oladi.

Muassasa xodimlarining ro`yxatdagi sonidan kamida 50 foizining bir vaqtning o`zida ishdan ozod etilishi xodimlarni ommaviy ravishda ishdan ozod etilishi deb xisoblanadi.

3.8. **Ish beruvchi** kiskartirilayotgan xodimlarni qayta tayyorlash va qayta o`qitish ishlarini tashkil etish majburiyatini o`z zimmasiga oladi.

3.9. Xodimlar soni kiskartirilayotganda kiskartirish oqibatlarini yumshatishga karatilgan quyidagi choralar nazarda tutiladi :

a) o`rindoshlikni, vaqtincha ishlaydigan xodimlar sonini cheklash, bir necha kasbda ishlashni taqiqlash, fuqarolik-huqukiy shartnomalar bo`yicha bajariladigan ishlarni jamoaning o`ziga berish;

b) xodimlarning xoxishiga ko`ra ularga ish xaki saqlanmagan xolda kiska muddatli ta`tillar berish;

v) kiskartirish to`frisidagi ogoxlantirish amal qilayotgan davrda xodimning o`z xoxishi bilan mexnat shartnomasini bekor qilinishini tomonlar kelishuviga binoan ogoxlantirish muddatiga muvofiq keladigan pullik kompensatsiya to`lash bilan amalga oshirish;

g) xodimlar soni kiskartirilishi munosabati bilan mexnat shartnomasi bekor qilinishi to`frisida ogoxlantirish olgan xodimga ogoxlantirish muddati davomida uziga qulay vaqtda boshqa ish kidirish uchun xaftada bir kun ish xaki saqlangan xolda ishga chikmaslik huqukini berish.

3.10. Texnologiyadagi, ishlab chikarish va mexnatni tashkil etishdagi o`zgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki ish xususiyatining o`zgarishiga olib kelgan ishlar xajmining kiskarishi munosabati bilan mexnat shartnomasi bekor kilinganda ishda koldirish uchun imtiyozli huquq O`zbekiston Respublikasi Mexnat kodeksi 103-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida ko`rsatilgan xodimlar toifalariga beriladi.

3.11. Agar xodimlar O`zbekiston Respublikasi Mexnat kodeksi 103-moddasining birinchi va ikkinchi qismlariga muvofiq ishda koldirishda afzallik huquqiga ega bo`lmasalar, u xolda xodimlarni ishda koldirishda afzallik beriladigan quyidagi xolatlar inobatga olinadi:

a) nogironlik;

b) pensiya yoshiga yaqinlashib qolganlik (ayollar 53 yosh, erkaklar 58 yosh);

v) ishlayotgan yolfiz onaning qaramo`rida 14 yoshga to`lmagan bolalar mavjudligi;

IV. ISH VAQTI VA DAM OLISH VAQTI

4.1 Tomonlar mexnat konunlarida ko`rsatilagn xaftalik ish soatidan oshmagan xolda 6 kunlik ish xaftasi asosida ish tashkil qilishga kelishdilar. Ish kunining davomiyligi, undan foydalanish tartibi, ishning boshlanishi va tugash vaqti, muassasa ichki mexnat tartibidan kelib chikib belgilanadi.

Pedagog xodimlar xaftalik ish soati tarifikatsiya soatiga muvofiq belgilanadi. Boshqa xodimlar uchun quyidagicha xaftalik ish soatlari belgilanadi:

-16 yoshdan 18 yoshgacha bo`lgan xodimlar uchun 36 soat;

- zararli sharoitda ishlovchilar uchun (laborantlar, maxsus farroshlar) 36 soat;

- normal sharoitda ishlaydiganlar xodimlar uchun 40 soat;

- I va II gurux nogironlari uchun – 36 soat;

4.2. O`zbekiston Respublikasi Mexnat kodeksining 229-moddasida nazarda tutilgan xollarda, shuningdek quyidagi asoslardan biri mavjud bo`lganda xodimning iltimosiga ko`ra unga to`liksiz ish vaqti belgilab ko`yilishi shart:

a) oila a`zolaridan birining betoblighi;
b) ishni ta`lim bilan ko`shib olib borilishi;
v) profilaktik davolanish zaruriyati;
g) texnologiyadagi, ishlab chikarish va mexnatni tashkil etishdagi o`zgarishlar tufayli xodimlar soni qiskarishining oldini olish.

4.3. To`liqsiz ish vaqti sharoitida ishlash muddati xodim bilan **Ish beruvchi** o`rtasidagi kelishuvga binoan belgilab ko`yiladi. To`liqsiz ish vaqti rejimidagi mexnat uchun ishlangan vaqtga mutanosib ravishda xaq to`lanadi.

4.4. tungi korovullarlar uchun ish vaqti (smena) muddati sutkasiga o`n ikki soat miqdorida belgilab ko`yiladi va ish vaqtini jamlab xisobga olish joriy kilinadi. Bunda ish vaqtining oylik balansiga rioya etiladi.

Ish vaqtini jamlab xisobga olish ayrim toifadagi xodimlarni ish vaqtdan tashqari ishlarga jalb etish xususida belgilangan cheklashlarga (O`zbekiston Respublikasi Mexnat kodeksi 220-moddasining beshinchi qismi va 228, 245-moddalariga) rioya kilgan xolda joriy etiladi.

4.5. Ish vaqti jamlab xisobga olinishi rejimida band bo`lgan xodimlarga xar oyda to`lanadigan ish xaki miqdori tenglashtirilishi kafolatlanadi (xisobga olinadigan davr yakunlari bo`yicha to`rirlab ko`yish sharti bilan). Bunda xisobga olinadigan davr mobayinida ish soatlarining normal miqdoridan ko`p ishlaganlik uchun ish vaqtdan tashqari ishlar uchun o`rnatilgan baxolarga binoan xaq to`lanadi yoki xodimning xoxishiga ko`ra dam olish kuni beriladi.

4.6. Ishdan tashqari vaqtlarda ishga jalb etish faqat xodimning roziligi bilan amalga oshiriladi.

4.7. Xodimlarni kechki va tungi vaqtlarda, shuningdek dam olish va bayram kunlari ishga jalb etish aloxida xollardagina xamda konun xujjatlarida belgilangan cheklovlarni xisobga olgan xolda, **Ish beruvchining Kasaba uyushma ko`mitasi** bilan kelishib qabul qilgan yozma farmoyishiga binoan amalga oshirilishi mumkin.

4.8. Ish beruvchi va pedagog xodimlarga konunlar va yo`riqnomalarda ko`rsatilgan uzaytirilgan quyidagi ta`til kunlari belgilanadi:

- raqbar xodimlar uchun kun;
- o`qituvchilarga ishlagan xar oyi uchun 4 kundan. To`liq yil ishlaganda 48 kun (ish kuni);
- to`garak raqbarlariga ishlagan xar oyi uchun 3 kundan 36 ish kuni.

4.9. Pedagog bo`lmagan xodimlarga quyidagicha ta`til berishga kelishildi:

- kutubxonachilar, etakchilar, laborantlar, xamshiralarga ishlagan xar oyi uchun 2 kundan 24 ish kunida;
- kolgan texnik xodimlarga 18 ish kunidan iborat ta`til belgilanadi.

4.10. Ish beruvchi quyidagi xollarda xodimning ish xaki saqlanib qolinadigan ta`til berish xaqidagi iltimosini qanoatlantirishni o`z zimmasiga oladi:

- yaqin qarindoshi vafot etganda – 3 kun;
- xodim va uning farzandining to`y marosimini o`tkazishga – 3 kun;

- kumush-oltin to'ylarda -2 kun;
- yangi uyga ko'chganda – 2 kun;

YAQIN qarindoshlar deb: xodimning ota-onasi, aka-ukasi, opa-singlisi, farzandi va uning turmush o'rtofining ota-onasi, aka-ukasi, opa-singlisi hisoblanadilar.

4.11. Quyidagi xollarda ko'shimcha yillik mehnat ta'tillari beriladi:

a) Mehnat sharoiti nokulay bo'lgan ishlarda (O'zbekiston Respublikasi Mehnat va axolini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi xamda Sotliqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan Mehnat sharoitlarini baxolash uslubiyoti asosida) 3 kundan 5 kungacha (**2-Ilva**);

4.12. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 144-moddasida ko'rsatib o'tilgan xodimlar toifalaridan tashqari quyidagi xodimlarga mehnat ta'tili ularning xoxishiga ko'ra yozgi yoki ular uchun qulay bo'lgan boshqa vaqtda beriladi:

a) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1997 yil 20 martdagi 153-sonli qaroriga asosan ijtimoiy ahamiyatga molik kasallik bo'yicha xisobda turgan xodimlarga;

b) betob oila a'zosini parvarishlayotgan xodimlarga;

v) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 18 maydagi PF-3878-sonli Farmoniga binoan tijorat banklaridan ipoteka kreditini olgan yosh oilalar vakillariga;

g) ishlayotgan nafaxaxo'rlarga;

4.13. Ta'til uchun xaq to'lash ta'til boshlanmasdan oldingi oxirgi ish kundan kechiktirmay amalga oshiriladi.

4.14. Xodimning arizasiga binoan unga ish xaqi saqlanmagan xolda ta'til berilishi mumkin, uning muddati xodim bilan **Ish beruvchi** o'rtasidagi kelishuvga binoan belgilanadi.

4.15. Mehnat kodeksining 150-moddasida ko'rsatib o'tilgan xodimlardan tashqari (1941-1945 yillardagi urush qatnashchilariga va imtiyozlari jixatidan ularga tenglashtirilgan I va II gurux nogironlariga, un ikki yoshga to'lmagan ikki va undan ortiq bolani tarbiyalayotgan ayollarga) yana quyidagi xodimlarga ularning xoxishiga ko'ra ish xaqi saqlanmagan xolda muqarrar tartibda 14 kalendar kunga qadar ta'til beriladi:

a) betob oila a'zosini parvarishlayotgan shaxslarga;

b) 30 yoshgacha bo'lgan yosh oila a'zolariga;

v) ishlayotgan nafaxaxo'rlarga.

4.16. Mehnat shartnomasi bekor qilinganda (shu jumladan uning muddati tugashi munosabati bilan xam) xodimning xoxishiga ko'ra, yillik asosiy va ko'shimcha ta'tillarni berib, undan keyin mehnat munosabatlarini bekor qilish mumkin. Bu xolda ta'til tugagan kun mehnat shartnomasi bekor qilingan kun deb hisoblanadi.

V. MEHNATGA XAQ TO'LASH.

KAFOLATLI TO'LOVLAR VA KOMPENSATSIYA TO'LOVLARI

5.1 Xodimlar mehnatiga xaq to'lash tizimi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 30 iyuldagi "O'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi

muassasalari xodimlarini moddiy raʼbatlantirishni kuchaytirish va ular meʼnatiga xaq toʻlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻrtisida” gi PK-929-sonli qarori xamda Vazirlar Maxkamasining 2008 yil 1 avgustdagi “Oʻrta maxsus, kasb-xunar taʼlimi muassasalari xodimlari meʼnatiga xaq toʻlashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash toʻrtisida” gi 165-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomlar xamda xukumat tomonidan qabul qilingan qarorlar asosida amalga oshiriladi .

5.2. Ish xaqini toʻlash muddatlari:

- birinchi yarim oy uchun - joriy oyning 20 sanasida;
- ikkinchi yarim oy uchun keyingi oyning 20 sanasida;

Xaq toʻlanadigan kun dam olish kuni yoki bayram kuniga toʻrti kelib kolsa, meʼnat xaqi shu kun arafasida toʻlanadi.

5.3. Xodimning roziligi bilan ish xaqining bir qismi uning plastik kartochnasiga oʻtkazib beriladi, bunday oʻtkazma miqdori toʻlanadigan summaning 70 foizidan oshmaydi.

5.4. Xodimga xaq toʻlash mazkur **SHartnomada** belgilangan muddatlarga nisbatan xizmat koʻrsatuvchi bankning aybi bilan kechiktirilganda – **Ish beruvchi** (Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2001 yil 22 iyundagi 264-sonli Qarori asosida tuzilgan bank va mijoz oʻrtasidagi xizmat koʻrsatish shartnomasiga binoan) bank raxbariyatiga jarima undirish toʻrtisida talabnoma kiritishni va undirilgan jarimani meʼnatga xaq toʻlashni tartibga solishga yoʻnaltirishni oʻz zimmasiga oladi.

5.5. **Ish beruvchi** meʼnatga xaq toʻlashga va meʼnatni meʼyorlashtirishga oid lokal xujjatlarni, shuningdek ularni joriy etish tartibini **Kasaba uyushma koʻmitasi** bilan kelishib oladi.

5.6. Xodimlarni mukofotlash **Muassasaning** mukofotlash toʻrtisidagi Nizomiga asosan amalga oshiriladi. (**4-Ilova**).

5.7. **Muassasada** oshirilgan miqdordagi meʼnat xaqi, ustamalar, koʻshimcha toʻlovlar va kompensatsiyalarning quyidagi turlari va miqdorlari oʻrnatiladi:

5.7.1. tungi vaqtdagi ish uchun 1,5 baravar xaq toʻlanadi;

5.7.2. ish vaqtdan tashqari ishlar, dam olish va bayram kunlaridagi ish uchun - 2 baravar miqdorda xaq toʻlanadi ;

5.7.3. bir necha kasbda (lavozimda) ishlaganlik, xizmat koʻrsatish doirasi kengayganligi, bajariladigan ishlar xajmi ortganligi, oʻzining asosiy ishi bilan bir qatorda ishda vaqtincha boʻlmagan xodimlarning vazifalarini bajarganlik uchun, shuningdek oʻrindoshlik asosida ish bajarilganida xodimlarning meʼnat xaqi miqdori meʼnat shartnomasining taraflari oʻrtasidagi kelishuvga binoan amalda bajarilgan ish yuzasidan, lekin xodim lavozim maoshining 70 foizidan kam boʻlmagan miqdorda belgilanadi;

5.7.4. Oʻzbekiston Respublikasi ichidagi xizmat safarlari uchun toʻlaniladigan kompensatsiyalar “Oʻzbekiston Respublikasi boʻylab xizmat safarlari toʻrtisidagi yoʻriqnoma”ga (Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va

Mexnat va axolini ijtimoiy muxofaza qilish vazirligi tomonidan 2003 yil 24 iyulda 83 va №7/12 son bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2003 yil 29 avgustda 1268 raqam bilan ro'yxatga olingan) xamda O'zbekiston Respublikasi Mexnat kodeksining 171-moddasiga asosan quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- a) yo'l kira xarajatlari normativ asosida;
- b) doimiy turar joyidan boshqa joyda yashash, shu jumladan uy-joy ijarasi bilan bo'liq xarajatlar;
- v) O'zbekiston Respublikasida belgilangan eng kam ish xaqining 10 foizi miqdorida sutkalik xarajatlar;
- g) xodim tomonidan ish beruvchining ruxsati yoki roziligi bilan qilingan boshqa xarajatlar.

5.7.5. O'zbekiston Respublikasidan tashkaridagi xizmat safarlari uchun to'laniladigan kompensatsiyalar (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 2000 yil 7 fevralda 16 son bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2000 yil 5 iyunda 932 - raqam bilan ro'yxatga olingan) "Vazirliklar, idoralar, korxonalar va tashkilotlar xodimlarini O'zbekiston Respublikasidan tashkaridagi xizmat safarlari uchun mablar berish tartibi"ga binoan amalga oshiriladi;

5.7.6. **Ish beruvchining** roziligi bilan va uning manfaatlari yo'lida xodim o'ziga tegishli mol-mulk (asbob-uskunalar, ashyolar va xokazo)dan (avtotransport vositasidan tashkari) foydalanganda ularning O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 144-moddasida keltirilgan me'yorlar asosida xisoblab chiqilgan amortizatsiyasi doirasida xarajatlar ko'planadi;

5.7.7. **Ish beruvchining** taklifiga binoan xodim boshqa joydagi ishga ko'chib borganda uning quyidagi ko'shimcha xarajatlari to'lanadi:

- a) ko'chish va mol-mulkni ko'chirib borish bilan bo'liq xarajatlar;
- b) yangi joyda o'rmashib olish bilan bo'liq xarajatlar;
- v) xodim tomonidan ish beruvchi bilan kelishib qilingan boshqa xarajatlar.

5.7.8. ish jarayonida zararsizlantirish vositalaridan foydalanganligi uchun xo'jatxona farroshlarning lavozim maoshlariga 10 foiz miqdorida kompensatsiya.

5.8. **Muassasada** amaliyot o'tuvchi oliy o'quv yurtlari talabalarining va o'rta-maxsus kasb-xunar ta'limi muassasalari o'quvchilarining mexnati uchun haq Kasb-xunar kollejlari o'quvchilarining amaliyoti to'frisidagi nizomga va **5- Ilovaga** binoan amalga oshiriladi.

5.9. **Ish beruvchining** ko'rsatmasiga binoan ish beruvchi va mexnat jamoasi manfaatlariga doir vazifalarni bajarish (malaka oshirish, xizmat safarida bo'lish, tibbiy ko'rikdan o'tish, navbatchilik, darslar o'tkazish va boshqa turli tadbirlarda katnashish) maqsadida xodim o'z asosiy ishidan ozod etiladi.

Agarda yuqorida ko'rsatilgan tadbirlar ish vaktida o'tkazilsa, bu xolda xodimning o'rtacha ish haqi saqlanib qolinadi – mazkur tadbirlar ishdan tashkari vaktida o'tkazilsa, xodimga sarf qilingan vaktiga mutanosib ko'shimcha dam olish vaqti beriladi.

Xodim ish beruvchi va meʼnat jamoasi manfaatlariga doir vazifalarni bajarayotganda **Muassasa** boʻyicha tarif stavkalari va lavozim maoshlari miqdori oshirilsa, u xolda xodimga meʼnat xaqi ana shu davrdagi barcha ish kunlar uchun yangi tarif boʻyicha qayta hisoblab chikilib toʻlanadi.

5.10. Kishlok xoʻjaligi ishlariga jalb etilgan xodimlarga meʼnat xaqi xar bir ishlagan kuni uchun oʻrtacha oylik ish xaqidan kam boʻlmagan hisobda amalga oshiriladi.

5.11. Ilmiy daraja va ilmiy unvonga ega xodimlar lavozim maoshiga xar oyda 15 foiz miqdorida ustamalar toʻlanadi.

VI. MEʼNAT INTIZOMI

6.1. Xodimlar tomonidan meʼnat vazifalarining bajarilishi meʼnat shartnomalari, tarkibiy boʻlinmalar toʻfrisidagi nizomlar, mansab yoʻriqnomalari, **Muassasa** Nizomi xamda Ichki meʼnat tartibi koʻidalariga binoan taʻminlanishini va nazorat kilinishini taraflar oʻz zimmasiga oladilar.

6.2. Ish beruvchi :

6.2.1. xodimlarni ishdagi muvofaqqiyatlari uchun tarmok va davlat mukofotlariga taqdim etishni;

6.2.2. xodimlarni meʼnatdagi yutuklari uchun xamda yubiley sanalarida (50, 55, 60 yoshga toʻlganda):

- pul mukofotlari bilan;

- tashakkur eʻlon kilish bilan;

- qimmatbaxo sovfalar bilan;

- sanatoriy-profilaktoriyga, shuningdek Oʻzbekiston Respublikasining sanatoriylari va dam olish uylariga yoʻllanmalar taqdim etish yoʻli bilan raʻbatlantirishni oʻz zimmasiga oladi.

VII. MEʼNAT SHARTNOMASI TARAFLARINING MODDIY JAVOBGARLIGI

7.1. **Ish beruvchi** quyidagi xollarda bir yoʻla beriladigan nafaqa toʻlaydi:

a) xodimning meʼnat vazifalarini bajarish bilan boʻflik xolda vafot etishi munosabati bilan uning olti yillik oʻrtacha ish xaqi miqdorida;

b) xodimning meʼnat vazifalarini bajarish bilan boʻflik xolda soʻfligiga shikast etkazilganligi munosabati bilan uning bir yillik oʻrtacha ish xaqi miqdorida.

7.2. **Ish beruvchi** zarar etkazilgan choʻrdagi aniq xolatlarni hisobga olib, aybdor xodimdan zararni undirishdan qisman yoki toʻlik voz kechishga xaqli. Bunday xolda etkazilgan zarar Muassasa foydasi hisobidan koʻplanadi.

7.3. Bevosita pul yoki tovar qimmatliklari bilan muomala kilayotgan xodimlar maxsus yozma shartnoma asosida ularga ishonib topshirilgan qimmatliklarning saqlanishini taʻminlamaganligi uchun toʻlik moddiy javobgar boʻladilar. Toʻlik moddiy javobgarlik xaqida shartnoma tuzilishi lozim boʻlgan xodimlarning toifalari roʻyxati **6-Ilovada** keltirilgan.

7.4. Bevosita pul yoki tovar boyliklari bilan muomala qiluvchi xodimlar tomonidan ishlar birgalikda bajariladigan va bunda jamoa (brigada) moddiy javobgarligi joriy etiladigan bo`linmalarning ro`yxati **7-Ilovada** keltirilgan.

VIII. MEẀNATNI MUXOFAZA QILISH

Ish beruvchining majburiyatlari

Ish beruvchi:

8.1. Ish beruvchi mexnatni muxofaza qilish buyicha (shartnoma muddatida) 2014 yilga 45 950 000 45 950 000 (mln) sum mablagni ajratadi:

№	1. Nomenklatura tadbirlariga	Mablag mikdori (ming sum)
1	Mexnatni muxofaza qilish bitimidagi tadbirlar -	35 600 000
	2. Nomenklatura tadbirlaridan tashkari	
2	Maxsus kiyim, maxsus poyafzal va SHXV vositalari uchun-	4.500.000
3	Sut (shunga teng boshka ozik-ovkat maxsulotlari) va davolash profilaktika ozik-ovkatlari uchun-	2 000 000
4	Gigiena vositalari (yuvish vositalari yoki sovun-sodaga) uchun	3 650 000
5	Tibbiy kurikdan utkazish uchun va xokazolar.....	2 000 000
	J a m i:	45 950 000

8.1.1 Ish beruvchi mexnatni muxofaza qilish buyicha (shartnoma muddatida) 2015 yilga 45 950 000 (mln) sum mablagni ajratadi:

№	1. Nomenklatura tadbirlariga	Mablag mikdori (ming sum)
1	Mexnatni muxofaza qilish bitimidagi tadbirlar -	35 600 000
	2. Nomenklatura tadbirlaridan tashkari	
2	Maxsus kiyim, maxsus poyafzal va SHXV vositalari uchun-	4.500.000
3	Sut (shunga teng boshka ozik-ovkat maxsulotlari) va davolash pro-filaktika ozik-ovkatlari uchun-	2 000 000
4	Gigiena vositalari (yuvish vositalari yoki sovun-sodaga) uchun	3 650 000
5	Tibbiy kurikdan utkazish uchun va xokazolar.....	2 000 000
	J a m i:	45 950 000

8.1.2 Ish beruvchi mexnatni muxofaza qilish buyicha (shartnoma muddatida) 2016 yilga 45 950 000 ming(mln) sum mablagni ajratadi:

№	1. Nomenklatura tadbirlariga	Mablag mikdo-ri (ming sum)
1	Mexnatni muxofaza qilish bitimidagi tadbirlar -	35 600 000
	2. Nomenklatura tadbirlaridan tashkari	
2	Maxsus kiyim, maxsus poyafzal va SHXV vositalari uchun-	4.500.000
3	Sut (shunga teng boshka ozik-ovkat maxsulotlari) va davolash pro-filaktika ozik-ovkatlari uchun-	2 000 000
4	Gigiena vositalari (yuvish vositalari yoki sovun-sodaga) uchun	3 650 000
5	Xodimlarni tibbiy kurikdan utkazish uchun va xokazolar.....	2 000 000
	J a m i:	45 950 000

Ushbu xisob-kitoblar smeta asosida tuziladi va tarkatilishi xam tuzilgan smetaga asoslanib uchastka va ishlab-chikarish bulimlariga taksimlab, ajratish majburiyatini o`z zimmasiga oladi. MMK Bitimi O`zbekiston Respublikasi mexnat va axolini ijtimoiy muxofaza qilish vazirligi O`zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi kengashi O`zbekiston savdo-sanoat palatasi Qo`shma qaroriga asosan mexnatni muxofaza qilish tadbirlarini rejalashtirish bo`yicha tavsiyalari asosida tuzilishi shartdir.

Barcha rejalashtirilgan va ajratishga kelishilgan mablaflar miqdori jamoa shartnomasining amal qilish muddati davomida eng kam ish xaqi miqdorining oshirib borilishiga mutanosib ravishda oshirib boriladi.

8.2. Mexnat muxofazasi bo`yicha bitim (kalendar yil uchun tuziladi) jamoa shartnomasiga ilova qilinadi (**1-Ilava**).

8.3. Mexnat xavfsizligi standartlariga qat'iy va aniq amal qilish ustidan nazoratni olib borish muassasaning mexnat muxofazasi xizmati yoki rahbarlardan birining zimmasiga yuklatiladi.

8.4. O'tgan yilda ishlab chikarishdagi shikastlanish va kasb kasalliklari xolati yilning birinchi fevraligacha taxlil kilib chikiladi, mexnat muxofazasini yaxshilash rejasi va sanitariya-soflomlashtirish tadbirlarining bajarilishiga yakun yasaladi (muassasada baxtsiz xodisa yuz bergan bo'lsa).

8.5. Mexnat muxofazasi burchagini tashkil etadi xamda tarfiobot-tashvikot vositalari, plakatlari va boshqa anjomlarni sotib oladi.

8.6. Korxonani kish mavsumida ishlashga tayyorlash bilan boflk barcha tadbirlarni 1 oktyabrgacha bajaradi.

8.7. Sanitariya-maishiy xonalarning uzluksiz ishlashini va ularning tegishli xolatda saklanishini ta'minlaydi.

8.8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2009 yil 24 iyundagi 177-sonli qarori bilan tasdiklangan "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sufurta qilish koidalari" talablariga muvofik xodimlarini ishlab chikarishdagi baxtsiz xodisalar va kasb kasalliklaridan sufurta qiladi.

8.9. Xar besh yilda kamida bir marta mexnat sharoitlariga baxo berishning O'zbekiston Respublikasi Mexnat va axolini ijtimoiy muxofaza qilish vazirligi bilan O'zbekiston Respublikasi Soflikni saklash vazirligi tomonidan tasdiklangan xamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1996 yil 28 mayda 247-son bilan ro'yxatga olingan "Mexnat sharoitlarini baxolash va mexnat sharoitlari bo'yicha ish o'rinlarini shaxodatdan o'tkazish" uslubiyoti asosida ish o'rinlarini mexnat sharoitlari bo'yicha shaxodat (attestatsiya)dan o'tkazadi.

8.10. Mexnat kodeksining 217-moddasiga ko'ra maxsus kiyim, poyabzal va boshqa shaxsiy ximoya vositalari bilan bepul ta'minlanish xukukini beradigan ishlarda ishlovchi xodimlarni jamoa shartnomasining **8-Ilvasida** belgilangan ro'yxatga muvofik, belgilangan muddatlarda maxsus kiyim va boshqa shaxsiy ximoya vositalari bilan ta'minlaydi.

8.11. Mexnat kodeksining 117-moddasiga muvofik noqulay mexnat sharoitlaridagi ishlarda band bo'lgan xodimlarga ish vaqtining kiskartirilgan muddatini belgilash xamda 137, 138-moddalariga muvofik mexnat sharoitlari noqulay va o'ziga xos bo'lgan ishlar uchun yillik ko'shimcha ta'til berish **9-Ilvaga** muvofik amalga oshiriladi (ish o'rinlari mexnat sharoitlari bo'yicha shaxodatdan o'tkazilganda).

8.12. Mexnat Kodeksining 217-moddasiga muvofik sut (yoki shunga tenglashtirilgan boshqa oziq-ovkat maxsulotlari)ni xodimlarga bepul berish **10-Ilvaga** muvofik amalga oshiriladi (ish o'rinlari mexnat sharoitlari bo'yicha shaxodatdan o'tkazilganda).

8.13. Mexnat Kodeksining 217-moddasiga muvofik mexnat sharoiti noqulay, zararli va ifloslanishlar bilan boflk ishlarda mexnat kiluvchilarga xar oyda sovun, gigiena vositalari bilan bepul ta'minlash xamda ularni bepul olish xukukini beradigan kasb va lavozimlar ro'yxatini tuzish va ta'minlash **11-Ilvaga** muvofik amalga oshiriladi (ish o'rinlari mexnat sharoitlari bo'yicha shaxodatdan o'tkazilganda).

8.14. Mexnat kodeksining 214-moddasiga ko`ra unda ko`rsatib o`tilgan xodimlarning, So`flikni saqlash vazirligining 2012 yil 10 iyuldagi 200-sonli buyruqi bilan belgilangan tartibda dastlabki tarzda va keyinchalik vaqti-vaqti bilan tibbiy ko`rikdan o`tkazilishini xodimlarning chikimdor bo`lmagan xolda tashkil kilinishini **12-Ilovaga** muvofiq ta`minlaydi.

8.15. Xodimlarni mexnat muxofazasi bo`yicha o`qitish xamda bilimlarini tekshirish to`rrisidagi namunaviy Nizom (O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1996 yil 14 avgustda 272-raqam bilan ro`yxatga olingan) talablariga binoan xodimlarni mexnat muxofazasi bo`yicha o`qitadi xamda bilimlarini tekshirish ishlarini tashkil etadi.

8.16. O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1995 yil 18 dekabrda 196-raqam bilan ro`yxatdan o`tkazilgan "Mexnat muxofazasi bo`yicha vakil xaqida"gi nizomga ko`ra saylangan Mexnat muxofazasi bo`yicha vakillarni saylangandan so`ng bir oy ichida kasaba uyushma ko`mitasi ishtirokida o`kishini tashkil qiladi.

8.17. Mexnat muxofazasi bo`yicha vakilning o`z vazifalarini ish vaqtida bajarishi uchun o`rtacha maoshini saqlab kolgan xolda xaftada ikki soatdan kam bo`lmagan vaqt ajratadi.

8.18. O`zbekiston Respublikasi Mexnatni muxofaza qilish to`rrisidagi Konunining 14-moddasiga binoan, muassasada ishlovchi xodimlar soni 50 nafar va undan oshganda maxsus tayyorgarlikka ega shaxslar orasidan mexnatni muxofaza qilish xizmatlari tuziladi (lavozimlar joriy etiladi). Agar xodimlar soni 50 nafardan kamroq bo`lganda mexnatni muxofaza qilish xizmatining vazifalarini bajarish raخبارlardan birining zimmasiga buyruk bilan yuklanadi xamda mexnat muxofazasi bo`yicha o`qitiladi.

8.19. Muassasada mavjud kasb va ish turlari bo`yicha yo`riqnomalarni (O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2000 yil 7-yanvarda 870-son bilan ro`yxatga olingan "Mexnat muxofazasi bo`yicha yo`riqnomalarni ishlab chikish to`rrisida"gi nizom) ishlab chikilishini nazorat qiladi.

8.20. Muassasada mexnatni muxofaza qilish jamfarmasini (O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Ma`kamasining 2008 yil 12-noyabrdagi 245-son qarori bilan tasdiqlangan nizom) tashkil etadi.

Kasaba uyushmasi ko`mitasining majburiyatlari

8.21. Kasaba uyushmasi ko`mitasining mexnatni muxofaza qilish bo`yicha komissiyasi tarkibini tasdiqlaydi, kasaba uyushmasi faollari o`quvini o`tkazadi (o`qitish muddati va dasturi ko`rsatilgan xolda).

8.22. Mexnat muxofazasi vakillari va mexnatni muxofaza qilish bo`yicha komissiya a`zolari yordamida xodimlarning mexnat muxofazasi talablariga qanday amal kilishayotganliklari ustidan doimiy nazorat o`rnatadi.

8.23. Xodimlarga beriladigan maxsus kiyim va shaxsiy ximoya vositalarining butunligi, ishga yarokliligi, ulardan majburiy foydalanilishni nazorat kilib boradi.

8.24. Mexnat xavfsizligi standartlariga kat`iy va anik amal kilish ustidan nazoratni olib borish korxonaning mexnat muxofazasi xizmati yoki raخبارlardan birining zimmasiga yuklatilishini nazorat qiladi.

8.25. Jamoa shartnomasining mexnatni muxofaza qilish bo`limi va uning mexnat muxofazasi bo`yicha bitimi loyixalariga takliflarni to`playdi va ularni mexnat jamoalari majlislarida muxokama etilishini tashkil qiladi.

8.26. Mexnat kodeksining 214-moddasiga ko`ra unda ko`rsatib o`tilgan xodimlarning, So`flikni saqlash vazirligining 2012 yil 10 iyuldagi 200 sonli buyruri bilan belgilangan tartibda dastlabki tarzda va keyinchalik vaqti-vaqti bilan tibbiy ko`rikdan o`tkazilishini xamda xodimlarning chikimdor bo`lmagan xolda tashkil kilinishini nazorat qiladi.

Ish beruvchi Kasaba uyushmasi ko`mitasi bilan xamkorlikda:

